

O'QUV DASTUR PASPORTI

O'quv dastur O'quv Markazning Markaziy tashkiliy uslubiy kengashda 2024 yil 20 iyundagi 13-sonli bayonnomasi, Sog'liqni saqlash vazirligi xuzuridagi uzluksiz tibbiy-farmasevtik ta'limni muvofiqlashtiruvchi kengashda tasdiqlangan 2024 yil 6 iyuldagi 1 –sonli bayonnomasi

Qayd raqami:34-2024

Amal qilish muddati 2026 yilgacha

Ta'lim muassasasi nomi	Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazi		
Kafedra/ bo'lim	Oliy ma'lumotli tibbiyot hamshiralari		
O'quv dastur nomi	Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida patronaj ishini tashkil etish		
O'qish turi	Mavzuli malaka oshirish		
O'quv dastur mualliflari	Salixodjaeva R.K., Alimova F.Z., Tojiboeva G.Sh.		
Siklning umumiy soati	36 kredit		
Dars o'tuvchi pedagoglar			
			
R.K.Salixodjaeva kafedra mudiri, t.f.n., dotsent	G.Sh.Tojiboeva kafedra assistenti	F.Z. Alimova kafedra katta o'qituvchisi	
			
Shaymardonov Erkin Karjanovich kafedra assistenti, t.f.n.	Ubaydulloeva Barno Baxtiyarovna kafedra assistenti	Axunova Nilufar Xusanovna kafedra assistenti	
Maqsad	O'quv dastur sog'liqni saqlash tizimidagi birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarining oliy ma'lumotli, bosh va katta xamda patronaj hamshiralari ishini tashkil etish, birlamchi bo'g'inda faoliyat yuritayotgan tibbiyot hamshiralarining faoliyati va		

	vazifalarini to'liq yoritib berish, shahar va qishloq aholisiga ko'rsatilayotgan birlamchi tibbiy sanitariya yordami sifatini oshirish va patronaj ishini takomillashtirishga qaratilgan bo'lib, tinglovchilarning nazariy bilim va amaliy ko'nikmalar majmuasini tibbiyotning zamonaviy tavsiyalarini asoslangan xolda chuqurlashtirish va yangilashdan iborat.
Siklga taklif qilingan mutaxassislar - kontingenti	Oliy hamshiralik ishi bakalavrlari va magistrleri, davolash profilaktika muassasalarining bosh, katta hamshiralari, birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalari o'rta tibbiy ma'lumotga ega bo'lgan tibbiyot xodimlariga mo'ljallangan
Dastur vazifalari	• aholi orasida sog'lom turmish tarzini shakllantirish, profilaktika yo'nalishlariga yangicha yondashish, aholini tizimli va maqsadli patronaj bilan qamrab olish chora tadbirlaridagi kasbiy malakasini oshirish; • aholi o'rtasida to'g'ri, ratsional ovqatlanish, zararli odatlarga qarshi kurashish, o'sib kelayotgan avlodni sog'lomlashtirish, axolini tibbiy madaniyatni shakllantirishda zamonaviy klinik protokollar va standartlar asosida faoliyat yuritish ko'nikmalarini takomillashtirish; • onalar va bolalar salomatligini muhofaza qilish bo'yicha tadbirlarni tashkil etish; • profilaktik emlashlar o'tkazish va nazorat qilish bo'yicha ko'nikmalarini chuqurlashtirish va yangilash; • birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida patronaj hamshiralari ishini tashkil etish, maqsadli patronajni amalga oshirish, skrining ko'riklari va dispanserizatsiya ishlarini nazorat qilish ko'nikmalarini takomillashtirish; • yuqumli bo'lmagan kasalliklarni oldini olish bo'yicha olib boriladigan tadbirlarda hamshiralarning vazifalarini ko'rsatib berish; • favqulotda vaziyatlar, kechiktirib bo'lmaydigan xolatlarni taxlil qila olish va kechiktirib bo'lmaydigan yordamni tashkil etish bo'yicha bilimlarini yangilash.
Modullar	1.Modul: Birlamchi tibbiy sanitariya yordami muassasalarida patronaj ishini tashkil etish 2.Modul. Patronaj ishini universal-progressiv model asosida tashkil etish

Amaliyot bazalari



**Tibbiyot xodimlarining kasbiy
malakasini rivojlantirish
markazi**
**M.Ulugʻbek tumani, Parkent
koʻchasi 51 uy**



**Olmazor TTB Markaziy
koʻp tarmoqli poliklinika**
**Olmazor tumani Sebzor
koʻchasi 19 uy**



**Yunusobod TTB Markaziy koʻp
tarmoqli poliklinika**
**Yunusobod tumani, Yunusota
koʻchasi 2 uy**

Simulyatsion asbob/uskunalar

